Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
<i>Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
<i>Yusupova Nozima Mahamadaliyevna</i>	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джамии.....	2342
<i>Каримов Жамшид</i>	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
<i>Matchanova Dilbar Yusupboyevna</i>	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
<i>Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
<i>Axmatov M. M.</i>	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
<i>Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
<i>Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna</i>	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
<i>Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li</i>	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
<i>Sultanova Shahnoza Mirxalilovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
<i>Raxmonova E'zoza Sherzod qizi</i>	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
<i>Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
<i>Yaqubova Dinora Bahodirovna</i>	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
<i>X. K. Qarshiboyeva</i>	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
<i>Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи</i>	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
<i>Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna</i>	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
<i>O'rinova Maftuna No'mon qizi</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
<i>Xudoykulova Nilufar Xamdorovna</i>	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
<i>Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi</i>	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumadova Diyorakhon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	

TA'LIM JARAYONIDA SEMIOTIK YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN SEMIOTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdusamatov Alisher Sobirovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi” kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tahsil olayotgan kichik yoshdagi o‘quvchilarda semiotik yondashuv asosida semiotik kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda semiotikaning asosiy sohalari, ularning chegaralari va turlari, semiotik jihatlarining ta‘lim jarayonidagi ahamiyati, shakllanish tarixi hamda qo‘llanilish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, semiotik yondashuvni samarali joriy etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar, yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari, semiotikaning tarmoqlari va yo‘nalishlari ochib berilgan. Maqolada semiotik bilim va ko‘nikmalarni nafaqat ta‘lim jarayonida, balki kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatlariga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: semiotika, ta‘lim, ta‘lim tizimi, falsafa, semasiologiya, pragmatika, sintaktika.

Abstract: This article examines a methodology for developing semiotic competencies aimed at forming a semiotic approach among primary school students in general secondary education institutions. The study analyzes the main fields of semiotics, their boundaries and types, as well as the significance of semiotic aspects in the educational process, their historical development, and practical applications. In addition, the article identifies the pedagogical conditions necessary for the effective implementation of a semiotic approach and reviews scholarly perspectives on the structure and directions of semiotics. Particular attention is given to the possibilities of applying semiotic knowledge and skills both in education and in everyday life.

Key words: semiotics, education, educational system, philosophy, semasiology, pragmatics, syntactics.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика развития семиотических компетенций, направленная на формирование семиотического подхода у учащихся младшего школьного возраста в общеобразовательных школах. В исследовании раскрываются основные области семиотики, их границы и виды, значение семиотических аспектов в образовательном процессе, история становления и практика их применения. Также определены необходимые педагогические условия эффективной реализации семиотического подхода, проанализированы научные взгляды ведущих ученых, структура и направления семиотики. Особое внимание уделяется возможностям применения семиотических знаний как в образовательной системе, так и в повседневной жизни.

Ключевые слова: семиотика, образование, система образования, философия, семасиология, прагматика, синтактика.

KIRISH

Inson borliqni qabul qiladi, idrok etadi va anglaydi, pirovardida esa muayyan his-tuyg‘ularni namoyon etadi. Binobarin, olam manzarasi haqida elementar tasavvur beruvchi perseptiv bilimlarni egallashda insonning sezgi organlari muhim rol o‘ynaydi. Perseptiv bilimlarni egallashda inson beshta tabiiy vositaga ega (beshta tuyg‘u, beshta modallik). Shulardan asosiylari ikkitadir:

1. **Vizual modallik (ko‘rish orqali bilish).** Inson ko‘rish orqali jami axborotning 80 % dan ko‘prog‘ini oladi^[6]. Ko‘rish orqali tasavvur hosil bo‘ladi, natijada aniq bir emotsiya yuzaga keladi. Hissiyot anglandi va vizuallashgan obyektning xossalari haqidagi muayyan darajadagi bilim shakllanadi. Ayni o‘rinda intellekt va tafakkurning birlamchi roli shubhasizdir, zero aql-idrok va tafakkur orqali qabul qilinmagan vizuallik bilish obyektining tasvirini “jonlantirishga” qodir emas^[7].



- 2. Audial modallik (eshitish orqali bilish).** Perseptiv bilishning ushbu ko'rinishini ham intellekt, aql-idrok va tafakkurning ishtirokisiz mukammal deb bo'lmaydi. Agar audial modallik vizual modallik bilan uyg'unlashsa (ya'ni ta'lim oluvchi ko'rish jarayonida eshitsa), bunday bilish jarayonining samaradorlik darajasi har ikki modallikning alohida olingan holatdagi samaradorligidan yuqori bo'ladi.

Perseptiv bilimni egallashning barcha usullari ta'lim oluvchining intellektual imkoniyatlari, ta'lim trayektoriyasi, tafakkuri va o'quv-bilish sifatlari bilan uyg'unlashtirilganda, bilimning ikkinchi darajasi – maqsadli (oqilona) bilim olish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Maqsadli bilim insonga ato etilgan barcha modalliklar (ko'rish, eshitish, anglash, intuitsiya, his etish va shu kabilar) asosida tizimli va izchil rejalashtirilgan bilimlarni aniq metodlar, metodikalar hamda vositalar orqali egallashni anglatadi. Maqsadli bilimni o'zlashtirish insonning butun umri davomida kechadigan uzluksiz jarayondir. Aytish mumkinki, oqilona (maqsadli) bilimlar perseptivlik natijasida hosil bo'lgan tasavvurning kengayishi, aql-idrok va modalliklarning rivojlanishi, insonning muloqot ko'lamlari hamda qamrovining ortishi kabi tabiiy takomillashuv natijasidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, shaxs rivojlanishida oqilona (maqsadli) bilim birlamchi bo'lib, konseptual xususiyatga ega [5].

Ta'kidlash kerakki, epistemologik tadqiqotlar sohasida bilimning perseptiv va maqsadli darajalarini o'zida mujassam etgan ko'rinishlardan biri "ta'limiy bilim" hisoblanadi. Ta'limiy bilimni egallash usullari nafaqat ta'lim oluvchining o'quv-bilish sifatlari, ijodiy-kreativligi, tadqiqotchilik mahorati va mustaqil bilim olish tajribalari bilan, balki uning semiotik kompetensiyalari hamda shaxsiy sifatlarining namoyon bo'lishi bilan ham belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shu tariqa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida semiotik yondashuvni takomillashtirishda dastlab perseptiv bilim, keyin maqsadli bilim va nihoyat ilmiy dunyoqarashning shakllanishi o'ziga xos muhim zinalar bo'lib xizmat qiladi. Perseptiv bilimlarni egallash uchun insondagi asosiy modalliklar va ularning aql-zakovat hamda tafakkur bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur uyg'unlashuv tadqiqot ishimiz mavzusidan kelib chiqqan holda semiotik kompetensiyalar sifatida talqin etiladi. Maqsadli bilim olish jarayonida perseptivlik bilan bir qatorda ta'lim oluvchining o'quv-bilish sifatlari, bo'lajak mutaxassis sifatidagi tayanch kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifa sanaladi. Ilmiy bilim darajasida bilim olish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida barcha kasbiy mahorat turlari va qobiliyatlar majmuasi bilan birga semiotik yondashuvni joriy etish zarurati ham yuzaga keladi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarda (asosan, bo'lajak o'qituvchilarda) semiotik yondashuvni quyidagi izchillik asosida olib borish maqsadga muvofiqdir:

Semiotik kompetensiyalarni shakllantirish. Ta'lim bevosita o'quv jarayonida loyihalashtirish va modellashtirish metodlarini qo'llash, insondagi multimodal tafakkur, audial va vizual bilish usullarini takomillashtirishga qaratilgan shakl, usul, metod hamda metodikalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Semiotik kompetensiyalar shakllanishiga zamin yaratuvchi o'quv-bilish sifatlari va tayanch kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Ushbu jarayon ta'lim oluvchida erkin va tizimli fikrlash, tanqidiy tafakkur, mulohaza yuritish, faktlarni umumlashtirish, xulosalar chiqarish, bitta muammoga bir nechta pozitsiyalardan yondashish, ijodiy-kreativlik va refleksivlik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, vositalar hamda metodikalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Modal bilish usullari va semiotik kompetensiyalarni takomillashtirish. Ta'lim oluvchida bilishning auditoriya va ta'limiy muhitdan tashqaridagi shakllarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va psixologik sifatlari (kuzatuvchanlik, diqqatni jamlash, diqqatni yo'naltirish, intuitiv sezgi, xotira va shu kabilar)ni shakllantirishga qaratilgan metodikalardan keng foydalanish orqali semiotik yondashuv yanada takomillashtiriladi.

Pedagogik vaziyatlardan samarali foydalanish. Ta'lim loyihalashtirishda pedagogik vaziyatlardan bilim berish, ta'lim oluvchida tegishli kompetensiyalarni shakllantirish hamda umumiy pedagogik ta'sir vositasi sifatida foydalanishning zamonaviy metodikalari mavjud. Ularni qo'llash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat, operativ tafakkur, muhitga moslashuvchanlik, rivojlangan nutqiy qobiliyat, yuksak semiotik kompetensiyalar hamda noverbal kommunikatsiya vositalaridan o'rinni foydalanish tajribasiga ega bo'lishni talab etadi. Semiotik yondashuvni takomillashtirishning ushbu aspektida pedagogik vaziyatlardan unumli foydalanish metodikalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida ta'lim oluvchilarda semiotik yondashuvni takomillashtirish uchun zarur bo'ladigan semiotik kompetensiyalarni shakllantirishning eng zamonaviy metodikalari "Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi" talabalari uchun muvofiqlashtirilgan holda yoritib beriladi.

Ko'rib o'tilganidek, ta'lim oluvchilarda semiotik yondashuvni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan semiotik kompetensiyalarga semiotik tizim elementlarini tushunish (matnlar, belgilar, ishoralar, majozlar, grafiklar, diagrammalar, gesturalar orqali ifodalangan ma'noni anglash), belgilar majmuasi orqali uzatilgan axborot, ma'lumot va faktlarni aniqlash, talqin etish hamda bilimga aylantirish (har qanday axborot, matn, obraz va timsol zamirida bilim mavjud bo'lib, ularni to'g'ri talqin qilish orqali bilim hosil qilinadi), fikrni semiotik tizim



elementlari (diagrammalar, sxemalar, grafiklar, obrazlar, majozlar) orqali ifodalash, multimodal tafakkur (o'quv mavzusiga oid ma'lumotlarni suratlar, kichik hajmli majoziy matnlar, artikulyatsiya, ohang, mimika, nutqdagi ma'no urg'usi va shu kabilar orqali yetkazish), kommunikativlik (olamga bola nigohi bilan qarash), ma'no hosil qilishga yo'naltirilganlik (o'quvchining savoliga savol bilan javob berish), aksiologik va kulturologik sifatlar (har qanday mavzuning qadriyatli hamda milliy-madaniy mazmunini yuzaga chiqarish) kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda ma'lumotlar umumiy o'rta ta'lim va oliy pedagogik ta'lim muassasalarida olib borilgan pedagogik jarayonlarni kuzatish, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, so'rov-noma va suhbatlar o'tkazish orqali to'plandi. Shuningdek, semiotik yondashuvga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or pedagogik tajribalar tizimli o'rganildi. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilishda tavsifiy, qiyosiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Ta'lim oluvchilarning semiotik kompetensiyalarining rivojlanish darajasi belgilar, ramzlar, grafik va vizual vositalar bilan ishlash ko'nikmalari asosida baholandi. Olingan natijalar umumlashtirilib, semiotik yondashuvni shakllantirishda samarali bo'lgan metod va metodikalar aniqlashtirildi hamda ularning ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati ilmiy xulosalar orqali asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim oluvchilarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida quyidagi metodlar hamda metodikalardan foydalanish tavsiya etiladi:

“Kichik guruhlarda loyihalash” metodi. Ushbu metod talabalarda loyihalashtirish tajribasini oshirish, fikrni belgilar orqali ifodalash, jamoaviy fikrlash, integrativ munosabat ko'nikmalarini, shuningdek, tahlil va tasavvur qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

1-guruh uchun mavzu: “Yashab turgan hududingizda suvni isrof qilishning oldini olish”.

2-guruh uchun mavzu: “Yashab turgan hududingizda havo ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari”.

3-guruh uchun mavzu: “Mahallani toza hududga aylantirish”.

“Kichik guruhlarda loyihalash” metodining shartlari:

- a) mavzuga oid muammoning sxematik tarzda ifoda etilishi;
- b) original g'oyaning mavjudligi;
- d) g'oyaning tushunarli va adekvatligi;
- e) taqdimot uchun 2 daqiqa vaqt ajratilishi.

Har bir guruh o'z loyahasini taqdim etadi. “Muvaqqat o'qituvchi” loyihalarni ko'rib chiqadi va eng mukammal loyihani muhokamaga tavsiya qiladi. Ushbu metod nisbatan kam vaqt ichida butun guruhning mavzuni (shuningdek, o'tilgan mavzularni ham) o'zlashtirganligini, kasbiy va o'quv-bilish kompetensiyalarini (ayniqsa, nutqiy qobiliyat, muhim va ikkinchi darajali elementlarni farqlash tajribasini), eng muhimi esa semiotik kompetensiyalarni – ya'ni semiotik tizim elementlari orqali g'oya yoki fikrni ifodalash mahoratini rivojlantirish imkonini beradi.

1. **“Vizual tahlil va talqin” metodi.** Ushbu metod mavzuga oid ma'lumotlarni suratlar, grafiklar, sxemalar yoki boshqa vizual vositalar orqali taqdim etish hamda talabalarning ularni tahlil asosida talqin etishlarini nazarda tutadi. Metod talabalarda belgilar, ramzlar va timsollar vositasida uzatilgan fikr yoki xulosani “o'qish”, anglash va o'z talqinidagi matnga aylantirish tajribasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon talabagan ijodiylik, tasavvur hamda belgi bilan matn o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash qobiliyatlarini talab qiladi.
2. **“Dekoding” (kodni yechish) metodi.** Mazkur metod mavzuga oid o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarni kichik hajmli ma'lumotlar yoki modullar ko'rinishida taqdim etishni nazarda tutadi. Talabalar hajman qisqa, mazmunan elementar ma'lumotlardan mustaqil tarzda bilim hosil qiladilar. “Dekoding” metodi belgilar, qisqa matnlar, majozlar va timsollar orqali taqdim etilgan ma'lumotlarni anglash, ularni matnli axborotga “o'girish” hamda tegishli bilim hosil qilish kabi semiotik kompetensiyalarni shakllantirish va izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Misol. O'qituvchi o'simliklarning rivojlanish jarayoni va undagi dinamikani talabalar mustaqil anglab olishlari uchun dastlab o'simlik urug'ini taqdim etadi. Talabalar urug'ning tuproqqa moslashuvi, namlik ta'sirida unib chiqishi hamda uning qurib qolmasligi uchun zarur sharoitlar haqida mulohaza bildiradilar.



Navbatdagi bosqichda o'qituvchi o'simlik niholini taqdim etadi. Talabalar niholning mo'tadil rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tabiiy shartlarni bayon qiladilar. Shu tariqa, o'simlikning rivojlanishi va nasl qoldirishi davomida sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlar o'ziga xos "kod" – ya'ni har bir rivojlanish bosqichiga xos real namuna sifatida taqdim etiladi. Yakuniy xulosa va pirovard fikr talabalar tomonidan kommunikativ muhokama yoki muayyan interfaol metodlar uyg'unligida shakllantiriladi.

3. **"Taqqoslash diagrammasi" (Venn diagrammasi) metodi.** Ushbu metod mavzu doirasidagi o'xshash tushunchalarning mohiyatini aniqlashda qo'llaniladi. Talabalarda o'xshash tushunchalar o'rtasidagi eng elementar farq yoki umumiylikni ko'ra bilish, uni bitta so'z yoki belgi orqali ifodalash hamda fikrni diagramma tarzida tasvirlash tajribasini rivojlantiradi.

4. **"Loyihalash" metodi.** Bu metod talabalarda mustaqil axborot va ma'lumot to'plash, ularni tizimlashtirish, mavzuga oid asosiy muammoni aniqlash bilan birga fikrni umumlashtirish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ularni sxematik tarzda ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi. "Loyihalash" metodidan muayyan bob yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtirish hamda mustaqil xulosalar chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Misol. O'qituvchi talabalarni uch guruhga taqsimlaydi va o'rganilgan bobdagi asosiy g'oyani o'z ichiga oluvchi mavzuni e'lon qiladi: "Mahallada lokal ekologik muammolarni bartaraf etishning samarali yo'llari". Loyihani ishlab chiqish muddati – kelgusi dars mashg'ulotiga qadar.

Birinci guruh ta'lim muassasasi joylashgan hududdagi lokal ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi omillar bo'yicha faktlar, ma'lumotlar va axborotlarni yig'ib, jadval shaklida taqdim etadi. Ikkinchi guruh mavjud muammolarni hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari haqidagi ma'lumotlarni to'playdi hamda jadval ko'rinishida taqdim etadi. Uchinchi guruh esa respublika yoki mintaqa miqyosida ishlab chiqilgan yangi ekologik yondashuvlar, loyihalar va vositalarni hamda ularni lokal sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini o'rganib, diagramma shaklida taqdim etadi. Uchala guruh tomonidan tayyorlangan loyiha navbatdagi dars jarayonida muhokama qilinadi va taqdim etiladi.

5. **"Case study" metodi.** Mazkur metod real hayotdagi muammolarni o'rganish va ularga yechim topishga qaratilgan. U talabalarda muammoni aniqlash, turli vaziyatlarni diagramma yoki grafiklar orqali tahlil etish, tafovutlarni raqamlar va belgilar yordamida ifodalash, farazlar ilgari surish hamda ularni dalillar va argumentlar bilan asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Metod amaliy dars mashg'ulotlarida qo'llash uchun ayniqsa samaralidir.

Misol. O'qituvchi "Nega vohamizdagi mavsumiy daryolar sathi yildan-yilga pasayib bormoqda?" degan savolni muhokamaga qo'yadi. Talabalar bitta mavsumiy daryo misolida muammoga aniqlik kiritadilar. Internet manbalari orqali tanlangan daryoning suv sathidagi o'zgarishlar diagramma tarzida namoyish etiladi. Keyingi bosqichda daryoning oziqlantiruvchi manbalari (irmoqlar, jilg'alar) bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va tegishli diagramma tuziladi. Uchinchi bosqichda mintaqa iqlimi (qor va yomg'ir miqdori, namlik darajasi) haqidagi ma'lumotlar diagramma ko'rinishida taqdim etiladi. Yakunda mavsumiy daryo sathidagi o'zgarishlarning yillar bo'yicha grafigi ishlab chiqiladi. Kommunikativ muhokama natijasida muammoning sabablari aniqlanadi va yechimlar taklif etiladi.

6. **"Kontekstual muhokama" metodi.** Ushbu metod bevosita semiotik yondashuv asosida qo'llanilib, ma'lumotlarni muayyan fan kontekstida ma'no kasb etuvchi belgilar, timsollar va obrazlar orqali taqdim etishni nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar mazkur kontekst doirasida mulohaza yuritish orqali belgilardagi mazmun va ma'noni anglab oladilar.

Misol. O'qituvchi "O'zbekistonning yangi tarixi" fanini o'qitishda mamlakat bayrog'i, gerbi, O'zbekiston xaritasi va madhiyasidan ta'lim vositasi sifatida foydalanadi. Ushbu vositalar o'rtasidagi umumiylik aniqlanadi va talabalar tomonidan "Mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari" degan xulosa bildiriladi. So'ng har bir element (bayroq, gerb, madhiya, xarita) alohida konsept sifatida muhokama qilinib, ularning mohiyati ochib beriladi. Belgilar o'rganilayotgan mavzu kontekstida tahlil etilgach, talabalar quyidagi xulosalarni bayon qiladilar:

- O'zbekiston turli tarixiy davrlarda turli shakl va maqomdagi davlatchilikka ega bo'lgan, binobarin, har bir davrga xos davlat ramzlari shakllangan;
- hududlar, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiyot, milliy g'oyalar, mulkchilik shakllari, siyosiy nufuz, madaniyat va ma'rifiy ravnaqdagi o'zgarishlar davlat ramzlarida o'z aksini topgan;
- mamlakatimizning amaldagi davlat ramzlari bugungi O'zbekiston Respublikasiga oid ma'lumotlarni ifodalaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa shuki, talabalarda semiotik yondashuvni takomillashtirish uchun, eng avvalo, ularda semiotik kompetensiyalarni shakllantirish va ularni izchil ravishda rivojlantirib borish zarur. Ushbu vazifani amalga oshirishda yuqorida sanab o'tilgan metodlar bir qator interfaol metodlar hamda usullar bilan uyg'unlikda qo'llaniladi. Talabalarda semiotik yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladigan o'quv-bilish sifatlari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining tayanch kasbiy sifatlari va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy metodlarga mazkur bobning navbatdagi paragrafida mufassal to'xtalib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Intel. Обучение для будущего учителя при поддержке Microsoft. 4-е изд., испр. / под ред. Е. Н. Ястребцевой, Я. С. Быховского. – М., 2004.
2. Марихин С. В. Проблемы образования и подготовка специалистов. – СПб.: ГУСЭ, 2006. – 108 с.
3. Кочнева Е. М. Сопоставление понятий проект, проектирование и проектировочная деятельность: исторический, этимологический и гносеологический аспекты // Онтология проектирования. – 2016. – Т. 6, № 1 (19). – С. 81–94.
4. Масюкова Н. А. Проектирование в образовании. – Минск, 1999.
5. Колесникова И. А., Горчакова-Сибирская М. П. Педагогическое проектирование: учебное пособие для высших учебных заведений / под ред. И. А. Колесниковой. – М.: Издательский центр "Академия", 2005. – 288 с.
6. Maksimova G. P. Universitet o'qituvchisining kommunikativ madaniyati va uning kasbiy faoliyatdagi rivojlanishi: dis. ... kand. ped. sci. – Rostov-na-Donu, 2000. – 179 p.
7. Morris C. V. Belgilar nazariyasi asoslari // Semiotika. – M., 1983. – 39–40-betlar.
8. Pedagogikadan amaliy dars davomida aqliy xaritalar [Elektron resurs] // Sidorov S. V. O'qituvchi-tadqiqotchining veb-sayti. – 18-03-2013.
9. Polyankina S. Yu. Ta'limning yangi kontseptual metaforasini izlashda ta'lim semiotikasining salohiyati // Ta'lim falsafasi. – 2018-yil. – 1-son (74). – 166–174-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.